

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MULTIMEDIALI TEXNOLOGIYALAR

Suvanova Nodirabegim Sadir qizi

Navoiy davlat Universiteti, Maktabgacha ta'lim kafedra o'qituvchisi

Normurodova Gulnoza Sunnatillayevna

Novoiy davlat Universiteti, Maktabgacha ta'lim yo'nalish talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim tarbiya jarayonlarda multimedilarning o'rni, hozirgi kunda bolalar qobiliyatlarini rivojlantirishda kompyuter savodxonlikning ilk tushunchalarini rivojlantirish texnologiyalari, yangi metodlar samaradorligi, bolalarda pedagoglarning axborotlashtirish ko'nikmalarini faoliyatlardagi amaliy jarayonlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Multimedia, kompyuter, axborot texnologiyalari, ovozli, harakatli taqdimotlar, maktabgacha ta'lim tashkiloti, kompyuter savodxonligi, yangi metod.*

МУЛЬТИМЕДИЙНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль мультимедиа в образовательном процессе в дошкольных образовательных организациях, технологии развития первых представлений о компьютерной грамотности в развитии способностей детей, эффективность новых методов, практические процессы формирования информационных навыков педагогов в деятельности детей. выделены.*

Ключевые слова: *Мультимедиа, компьютер, информационные технологии, звук, движущиеся презентации, дошкольная образовательная организация, компьютерная грамотность, новый метод.*

MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Annotation: *This article describes the role of multimedia in educational processes in preschool educational organizations, the technologies for developing the first concepts of computer literacy in the development of children's abilities, the effectiveness of new methods, the practical processes of pedagogues' information skills in children's activities.*

Key words: *Multimedia, computer, information technologies, sound, moving presentations, preschool educational organization, computer literacy, new method.*

Hozirgi davrda zamonaviy bilim-ko'nikmalarga ega, javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan qa'tiyatli, intiluvchan va serg'ayrat barkamol yoshlarni tarbiyalash har doimgidan

ham dolzarb masala hisoblanadi, chunki vatanimiz kelajagi bugun biz tarbiyalayotgan yoshlarga bog'liq.

Respublikamiz Prezidenti ham yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda kitobxonlik ko'nikmalarini kuchaytirish va ularni ma'naviyatini yuksaltirish va bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu aynan yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internet tarmoqlaridan samarali foydalanish hamda axborot texnologiyalariga qiziqqan bolalarni to'g'ri yo'naltirish samarali ishlari olib borilmoqda.

Darhaqiqat, aynan yoshlarni bugungi kunda integratsiyalashuv, globallashuv davrida axborotlarni internet tarmog'idan foydalangan holda olishlari hech kimga sir emas. Shuning uchun biz axborot telekommunikasiya va internetdan onlayn, madaniyatli foydalanishni maktabgacha yosh davridan boshlashimiz dolzarb masaladir.

Bu haqida "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" Qonunning 53-moddasida ham maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimining ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlash vazifalaridan biri sifatida ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun o'quv-uslubiy va didaktik materiallar ishlab chiqish masalalariga alohida belgilab berilgan.

Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia texnologiyasidan foydalanish yaxshi samara beradi. Birinchi navbatda atamaning ma'nosiga to'xtalib o'tamiz. Multimedia atamasining lug'aviy ma'nosi:

✚ [multum+medium] (yoki [ingl. multi+media]) kabi ikkita so'z yig'indisidan tashkil topgan bo'lib, multi – ko'p, media - muhit ma'nosini anglatadi.

✚ Atama ilmiy va o'quv adabiyotlarida —ko'p vositalilik, —multimedia muhiti, —ko'p qatlamli muhit, —multimedia - bittadan ko'p bo'lgan mediadir, —mahsulot tashuvchi vosita, —ma'lumot tashuvchi vosita kabi talqin qilinib kelinmoqda, hatto, ayrim adabiyotlarda —hozirgacha multimediani aniq ta'rif mavjud emasligi ham e'tirof etilgan. Lekin hozirgi kunda zamonaviy dastur mahsulotlarini yaratishdagi yangi texnologiya hisoblanib, biz uncha usta (aynan shu soha uchun professional) bo'lmagan foydalanuvchini muloqot menyulari, chiroyli tasvirlar, sintezlangan tovushlar, musiqa tovushlari, dinamik grafikani turli effektlari kabi dastur obyektlarini ketma-ketlikda, bir tizimda joylashtirish uchun qulaydir. Multimediali o'qitish uchun juda ko'p dasturlar mavjud: Ispring Pro, AutoPlay Media, Macromedia Flash, Prezi va boshqa dasturlar mavjud. Aynan biz maktabgacha ta'lim tashkilotlarda mashg'ulotlar jarayonida multimedidan foydalanish uchun "PowerPoint" dasturidan foylanaishimiz mumkin. U taqdimotlarni ishlab chiqish dasturiy vositasi hisoblanadi. Yaratiladigan taqdimot bizga yanada qulay va keng imkoniyatli namoyishlarni tashkil etadi. Darhaqiqat, shu kunga qadar internetdan yangiliklar bilan tanishish, ma'lumot qidirish, elektron pochtdan foydalanish yoki bir-birimizning holimizdan xabar olish uchun foydalanilgan bo'lsa, hozirda esa asosiy ta'lim-tarbiya berish vositasi sifatida insonlar hayotida juda katta ahamiyat kasb etmoqda. Internet biz uchun hafaqat masofadan o'qitish shakli, balki elektron kutubxonalar, bevosita tibbiy,

psixologik, pedagogik maslahatlar, ijtimoiy hayotning barcha juhatlari haqida ma'lumotlar, online tadbirkorlik, elektron do'konlar hamdir.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, internet tarmoqlari biz uchun ta'lim, bilim, ma'lumot beruvchi vositadir. Bu ishlar asosan maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari uchun maxsus telegram kanalidan Respublikamiz miqyosidagi barcha viloyatlardagi maktabgacha ta'lim boshqarmalar, shahar va tumanlardagi maktabgacha ta'lim bo'limlari va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mavjud guruhlar o'z telegram guruhlarini tashkil etib, unda mana shu faoliyatga aloqador bo'lgan shaxslar, pedagog-xodimlar, mudira, uslubchilar, tarbiyachi, yordamchi tarbiyachi, ota-onalar va bolalardan tashkil etilgan. Bu jarayonda vazirlikdan kelgan yangiliklar, qaror va xatlar boshqarma, bo'limlarga yetkaziladi. Boshqarma va bo'limlardagi olib borilayotgan ishlar albatta vazirlikka yetkaziladi. Eng asosiy jarayon esa maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilar ota-onalari va pedagog-xodimlari bilan tuzilgan "Onlayn telegram" guruhlarida amalga oshiriladi. Bu guruhda asosiy tashkilotchi tarbiyachi hisoblanib:

- ✚ Davomatni to'liq bo'lishini;
- ✚ O'z vaqtida mashg'ulotlarni boshlab, o'z vaqtida tugatish;
- ✚ Bolalarga topshiriqlar berish;
- ✚ Bolalar tomonidan bajarilishini nazorat qilish va yana boshqa barcha jarayonlarni amalga oshiriladi.

Bundan tashqari masofadan o'qitish texnologiyasini amalga oshirish jarayonida tarbiyachi va pedagog-xodimlar quyidagi o'quv-uslubiy materiallardan foydalanishlari va yetkazib berishlari kabi ishlarni ham amalga oshiradilar:

- Bola uchun adabiyot;
- Audio va video manbalar;
- Onlayn mashg'ulotlar;
- Elektron kutubxonalar;
- Matnlar;
- Multimedia- elektron ma'lumotlar;
- Video va audio yozuvlar.

Yuqorida tavsiya etiladigan adabiyotlarni respublikamizda mavjud boshqa elektron kutubxonalardan ham olish mumkin.

Audio-video manbaalar esa quyidagicha amalga oshadi:

1. Sinxron o'quv tizimi.
2. Asinxron o'quv tizimi.
3. Aralash tizim.

Sinxron o'quv tizimi bevosita o'qish jarayonida tarbiyalanuvchi-tarbiyalanuvchi va tarbiyachi o'zaro aloqasini ta'minlaydi. Bu tizimlarga interaktiv video, audio, kompyuter vositasida telekonferensiya, IRC, MUD va MOO misol bo'la oladi.

Asinxron o'quv tizimi bir vaqtning o'zida tarbiyalanuvchi-tarbiyalanuvchi va tarbiyachining o'zaro aloqa qilishini ta'minlay olmaydi. Pedagog-bola vaqt va rejani o'zi tanlaydi albatta ota-

onalari bilan. Masofadan o'qitish texnologiyasining bu tizimida yozma materiallar, audio va videokassetalar, elektron pochta, WWW, FTP asosida yaratilgan kurslardan foydalaniladi.

Aralash tizimda sinxron o'qish va asinxron o'qish tizimlarining im-koniyatlaridan qisman foydalaniladi.

Online mashg'ulotlar yuqorida aytib o'tganimizdek, bolalarga dastur asosida olib boriladi. Mavzu bo'yicha tayyorlangan taqdimotda audio yozuvlar kompyuter orqali amalga oshiriladi va televizion signal telefon tarmog'iga jo'natiladi. Ikki tomonlama aloqani interaktiv aloqa deb ham atashimiz mumkin. Raqamli televideniye tizimidan foydalanish uchun maxsus sputniklardan foydalanish shart emas.

Matnlar- ota-onalar uchun bolalar bilan birgalikda bajarib, tarbiyachiga qay darajada bajarganliklari haqidagi axborotni yetkazib boradilar.

Multimedia-elektron ma'lumotlar o'zida ko'pgina ma'lumotlarni mujassamlashtirgan holda, bu ma'lumotlarni ekranda namoyish etadi hamda ovoz yordamida izohlanadi. Multimedia darsligining xususiyati u voqea va ma'lumotlarni yaqqol aks ettiradi. Ya'ni multimedia voqea va ma'lumotlarni hayotiyalashtiradi. Bu matn, videotasvir, multiplikatsiya, ovoz va musiqa yordamida amalga oshiriladi. Video va audio yozuvlar kompyuter ma'lumotini o'qish, ko'rish, eshitish va yozish imkonini beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda multimedia texnologiyasining asosiy va yetakchi tashkiliy shakli-kompyuterli mashg'ulotdir. Ushbu texnologiya bo'yicha mashg'ulotlar 30 daqiqa davomida, kompyuterlardan foydalanib olib borilgani uchun, o'rtada 15 daqiqadan so'ng 5-10 daqiqali o'rganiladigan materialga tegishli o'yin mashg'uloti yoki suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Shundan keyin, yana mashg'ulotning 15 daqiqasi davom ettiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayoniga kompyuterlardan foydalanishning afzallik tomonlaridan biri shundan iboratki, bolalar kompyuterda ishlashni to'la o'rganib olganlaridan keyin, undan 15 daqiqa davomida mustaqil ravishda materiallarni o'rganishlari mumkin. Kompyuterning "bag'ri keng" va "toqatli, sabrli". Bola xato qilgan taqdirda ham, xatoni o'zi tuzatgunga qadar, hech kim unga tanbeh bermaydi. Multimedia texnologiyasida ta'lim va tarbiyani mashg'ulot shaklidan tashqari, o'yin shaklida (kompyuterli o'yinlar), ekskursiya, sayohat, amaliy mashg'ulot shaklida (ekologik ta'lim), masofali muloqot shaklida olib borish mumkin.

Bu o'qish tartibi tarbiyachi ota-onalarga tanishtiradi va ular orqali bolalarga topshiriqlar beriladi. Ota-onalar ko'rsatilgan manbalar bilan ishlab, topshiriqlarni bolalari bilan bajaradilar va tarbiyachiga yuboradilar. Tarbiyachi uni tekshirib, nazorat qilib, javobini yana qaytarib jo'natadi. Zarur holda yana qo'shimcha ko'rsatmalar beradi. Shu tartibda mashg'ulotlar temetik mavzular asosida o'rganib boriladi. Bunday o'qitish tarbiyalanuvchilar bilan individual shaklda olib boriladi va ularning qobiliyati va individual xususiyatlarini, rivojlanish darajalari hisobga olingan holda amalga oshiriladi. Bu individuallik tarbiyalanuvchi-bolada qiziqish uyg'otadi va uni o'qishda faollikka undab rag'batlantiradi.

Masofaviy o'qitish – mustaqil o'qish bo'lib, tarbiyalanuvchi-bolaning mustaqil fikrlashi, holatning baholashi, xulosa va umumlashtirish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuning uchun

masofadan o'qitishda asosiy e'tiborni o'quv-uslubiy materiallarini tayyorlashga qaratish kerak. Chunki o'quv-uslubiy materiallarning sifati masofadan o'qitish sifatining asosiy omillaridan biridir. O'quv-uslubiy material qanchalik tushunarli, sodda, batafsil bo'lsa, u foydalanuvchi-tarbiyalanuvchiga shunchalik tushunarli bo'ladi. Biz tayyorlayotgan o'quv materiallari uslubiy, badiiy, pedagogik, psixologik jihatdan to'liq, aniq va tushunarli bo'lmog'i zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti- Qarshi, 2011 yil, 79-bet
2. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. T.Fan, 2009. -145 b.
3. Azizxodjayeva N.N. Peagogik taqiqotlarda axborot tizimlari va axborotlari –T: Fan-2018.
4. Begmatova N.X. Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari.T.: 2012 yil, 7-bet.
5. Suvanova N. S. (2023) Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kompyuter savodxonlik faoliyatlatini tashkil etish usullari.
6. Suvanova N. S (2024)
7. Yuldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar T.: 2009 yil, 566-bet.
8. G.P. Ermatova Mutafakkirlarimiz asarlarida xalq ogzaki ijodiyoti asosida bola sotsial intellektini shakllantirish masalalarining yoritilishi Psixologiya Учредители: Бухарский государственный университет, 103-108
9. E.G.Pirimovna Yosh avlod huquqlari-qomusimiz himoyasida <https://sciencepedagogy.uz/wp-content/uploads/2023/12/Zamonaviy-pedagogika-2-son.pdf#page=72>

Elektron resurslari:

1. <https://conference.org>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki>
3. <https://artyar.ru>
4. <https://kompy.info>
5. <https://uz.wikidea.ru>